

TIL PSIXOLOGIYASIDA ONOMATOPEYA VA OVOZLI HODISALAR TAHLILI.

Choriyeva Shirinoy

BuxDU Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: N.N.Hamroyeva

f.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Onomatopeya inson nutqini bayon etishda sezgi va tafakkur bilan ta'minlovchi muhim omildir. Mazkur maqolada ovozli hodisalar va onomatopeyaning til psixologiyasidagi o'rni va qanday ahamiyat kasb etishi yoritilgan va tovushning insonga ta'siri va o'zaro hamohangligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar. *Psixolingvistika, ovozli ta'sirchanlik, ma'no uyg'unligi, ramzlilik, onomatopeya.*

Аннотация. *Ономатопея — это сочетание интуиции и мысли в описании человеческой речи. В статье рассматривается роль и значение звуковых явлений и ономатопеи в психологии языка, анализируется влияние звука на человека и их взаимодействие.*

Ключевые слова: *психоллингвистика, аффективность голоса, значение Гармония, символизм, ономатопея*

Annotation. *Onomatopoeia is a combination of intuition and thought in describing human speech. This article discusses the role and significance of sound phenomena and onomatopoeia in the psychology of language, and analyzes the impact of sound on humans and their interaction.*

Keywords: *Psycholinguistics, voice affectivity, meaning harmony, symbolism, onomatopoeia*

Til psixologiyasida shaxsning tilni tushunishi, aniq va ravon so'zlashi, tez eslab qolishi va nutqda hosil bo'ladigan jarayonni o'rganadi. Til fonemalarining majmuasi bu tilning emotsional va badiiy jihatidan biridir. Yana bir jihati shundaki, onomatopeya va ovozli hodisalar inson ongida turli xil tushunchalar o'rtasidagi aloqani tasvirlaydi.

Onomatopeya – tovushlarga taqliddir. Ayniqsa, Wilhelm Wundt o'z faoliyati davomida "Til bu inson tafakkurining eng oliy ifodasi" degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni til tafakkur bilan bevosita bog'liq. Shuni aytib o'tish kerakki, tovush va so'zda ham o'zaro bog'liqlik bor. Tovushsiz biror so'zni tasavvur qilolmaymiz. Masalan, g'uv-g'uv (shamol), shildir-shildir (suv oqishi), g'ichir-g'ichir kabi tushunchalar mavjud. Nafaqat o'zbek tilida balki, boshqa tillarda ham onomatopeyani uchratishimiz mumkin. Ingliz tilini oladigan

bo'lsak, patter/drip (tomchilash tovushi) meow (miyovlamoq) kabi misollarni keltirish mumkin. Xuddi shu kabi tushunchalarni nutqda ifoda etish inson ongida ma'lum bir voqea yoki tasvirni gavdalantiradi va eshitish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu sabadan ham, onomatopeya til psixologiyasida ruhiy ta'sir va tafakkur sifatida muhim rol o'ynaydi.

Ovozli ramzlilik haqida gapiradigan bo'lsak, bu tushuncha bir tovushning turli ma'noga ega bo'lishi va o'zida noziklik, g'azab, ramzlilik kabi tuyg'ularni mujassam etadi. Masalan, "a","o"-kenglik, kuch; "i","e"-tovushlarida esa noziklik, mayinlik seziladi. Noam Chebskyning „Generativ grammatika“ nazariyasi kitobida u shunday fikrni yozib o'tadi: „Til- inson ongining mahsuli va u tabiatan mavjud tuzilma“. Shu bilan birga Chomsky aynan shu asarda Ferdinand de Sossyurning " Til begisi ixtiyoriy" degan fikrini qisman qo'llab quvvatlagan. Nafaqat chet el adabiyotlarida balki, o'zbek adabiyotshunoslari Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Oripovlar asarlarida onomatopeyalar inson tasavvurini kengaytirishda yordam beruvchi vazifa sifatida keng qo'llanadi. "Shildir-shildir suv tovushi", "vovullagan it" kabi ifodalar inson ongida ma'lum tasvirni yaratadi. Bundan bilishimiz mumkinki, onomatopeyalar insonlar psixikasiga turlicha ta'sir qiladi. Yosh bolalarni oladigan bo'lsak, ular til o'rganishda avval onomatopeyalardan boshlaydi. Chunki ular " vov" deganda itni,"bip" deganda mashinani tushunushadi. Shundagina ular tezda gapirish ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Demak, onomatopeya jamiyat va taraqqiyot rivoji uchun keng qo'llanib kelinayotgan usuldir.

Adabiy asarda bundan ko'p foydalanish she'r yoki romanning ta'sirchanlik hissini orttiradi va asarni o'qiyotgan inson tasvirlanayotgan voqeani ongida tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladi,ohangdorlikni ham kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, til psixologiyasi insonning ruhiy ajralmas qismi hisoblanadi.Adabiy asarlarda bu turlicha talqin qilinadi .Ba'zi insonlar tilni inson ongining ichki jarayoni deb izohlashgan. Til yordamida inson o'zining ichki kechinmalarini, ruhiyati, qarashlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham, "Til- yurakning tovushi" deb bejizga aytishmagan. Onomatopeya tafakkur va nutq o'rtasida tabiiy ko'prik vazifasini ham bajaradi. Taqlid so'zlardan badiiy asarlarda yoki sherlarda foydalanish ularni yanada go'zal va jozibaliroq qiladi. Onomatopeyaning kelib chiqishi qadimdan boshlangan. Insonlar atrofdagi eshitgan tovushlarini sayqallab, unga ma'lum ma'no yuklashgan. Bu jarayon til paydo bo'lishining ilk bosqichlarida sodir bo'lgan. Ya'ni odamlar buni eshitgan tovushlariga taqlid qilib yaratishgan. Onomatopeya rivojlanib, hozirda turli sohalarda keng qo'llanib kelinayapti.Ta'lim sohasidan tashqari, tibbiyotda ham qo'llanyapti. Ayniqsa logopedlar uchun bolalarning nutqini rivojlantirishda juda muhim va samarali usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babaxanova D. Psixolingvistika o'quv- dasturiy qo'llanma. Namangan. 2024
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002
3. Khamroeva N. N. THE IMPORTANCE OF COMPLIMENT IN THE NORMS OF SPEECH ETHICS //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 1213-1217.
4. Nizomiddinovna, H. N., & Munisa, P. L. (2024, February). LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF CREATING COMMUNICATIVE COMFORT IN DIALOGIC DISCOURSE. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 14-17).
4. Sh, S., & Toirova, G. (2007). Fundamentals of ethnosociopragmatic analysis of speech. Study guide. Samarkand, SamDChTI edition.
5. O'zbek tili grammatikasi. - O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2020. Toshkent.